

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FIL.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUJABBAROVA ZAMIRA RUSTAMOVNA

**OLAMNING LISONIY MANZARASI TASVIRIDA NUTQIY
TEJAMKORLIKNI VOQELANISHINING MILLIY-MADANIY
XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук
(DSc)**

Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Abdujabbarova Zamira Rustamovna

Olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlikni voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida)3

Abdujabbarova Zamira Rustamovna

National and Cultural Features of Realization of Speech Economy in the Depiction of Linguistic Picture of the World (on the Example of the English and Uzbek Languages)33

Абдужаббарова Замира Рустамовна

Национально-культурные особенности реализации речевой экономии в изображении языковой картины мира (на примере английского и узбекского языков)63

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ69

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.FIL.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUJABBAROVA ZAMIRA RUSTAMOVNA

**OLAMNING LISONIY MANZARASI TASVIRIDA NUTQIY
TEJAMKORLIKNI VOQELANISHINING MILLIY-MADANIY
XUSUSIYATLARI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Fil860 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Rasulov Zubaydullo Izomovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qosimova Nafisa Farxodovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saparboyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Panjiyeva Nasiba Narmaxmatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FIL.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 18-avgust soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (964-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida xalq tasavvurlari va dunyoqarashining aks etishi, lisoniy hodisalarning inson tafakkuri bilan bog'liqligi hamda shaxslararo kommunikatsiyada nutq madaniyati masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy tejamkorlik fenomeni til tizimi va nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida antropotsentrik, kognitiv, pragmatik hamda lingvokulturologik yondashuvlar asosida tadqiq etilmoqda. Uning lingvistik va ekstralingvistik tabiati, hosil bo'lish mexanizmlari, olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o'rni, lingvokognitiv xususiyatlari hamda milliy-madaniy asoslarini aniqlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu esa ingliz va o'zbek tillaridagi lisoniy hodisalarni Sharq va G'arb tafakkuri, madaniy qadriyatlari, lingvokulturologik, kognitiv-mental hamda pragmatik-kontekstual omillar nuqtayi nazaridan qiyosiy tadqiq etish imkonini bermoqda.

Amaliy jihatdan jahon tilshunosligida, birinchidan, raqamli kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt vositasidagi muloqotda nutqiy tejamkorlikning namoyon bo'lish shakllari, qo'llanish chastotasi hamda kommunikativ samaradorligini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ikkinchidan, nutqiy tejamkorlikning milliy-madaniy, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini turli tillar materiallari asosida qiyosiy o'rganish, uning olam lisoniy manzarasini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash bo'yicha izlanishlar kengaymoqda. Uchinchidan, nutqiy tejamkorlik hodisasini korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, avtomatik tarjima, sun'iy intellekt, til o'qitish metodikasi hamda madaniyatlararo kommunikatsiya amaliyotiga tatbiq etish, uning nazariy va amaliy modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq nutqiy tejamkorlikning ingliz va o'zbek tillarida olamning lisoniy manzarasi bilan uzviy bog'liqligi, uning milliy-madaniy voqelanish mexanizmlari hamda lingvokognitiv asoslari kompleks qiyosiy aspektda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Dunyo tillari va madaniyatlarida nutqiy tejamkorlik tamoyillarining shakllanishi va kuchayishi, emotsional va bezakli nutq uslublari, nutqiy jarayonlar va uning madaniy kontekstda aks etishi, nutqiy tejamkorlik va milliy madaniyatning o'zaro bog'liqligi, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar, milliy-madaniy dunyoqarashning lisoniy vositalar orqali ifodalanishini o'rganish ustivor vazifaga aylanmoqda. Shu bois ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning fonetik, morfologik va sintaktik sathlarda namoyon bo'lish shakllarini aniqlash, til strukturasi xos qisqartma vositalarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, maskur hodisani olam lisoniy manzarasi kontekstida o'rganish, undagi lingvokognitiv tamoyillarni belgilash, ularning nutq strukturasi xos vositalari o'rnini ko'rsatib berish hamda mazkur jarayonda madaniy va milliy xususiyatlarning ifodalanishini tadqiq etish va ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi jadal rivojlanish bosqichida O'zbekiston Respublikasini ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi¹ning davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish o'zbek tilshunosligi oldiga ham fundamental tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga ko'tarishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu borada kundalik nutqda istifoda etiladigan tejamkorlik fenomenining lison hamda nutqdagi o'rnini, milliy-madaniy jihatdan motivlashish asoslarini ochib, leksikografik manbalarni yaratish, badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq lingvokulturologik belgilarni yoritishga oid tadqiqotlar jahon adabiyoti tilining tipologik xususiyatlarini aniqlash barobarida milliy-madaniy xususiyatlarini anglashga keng yo'l ochadi. Globallashtirilgan dunyo sharoitida tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning universal va xususiy jihatlarini yoritib berish masalalari bugungi kunda xalqaro hamkorlik va kommunikatsiya jarayonining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Nutqiy tejamkorlik va olamning lisoniy manzarasi psixologiya va tilshunoslikning asosiy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи. - 2017, - 8 февраль. - № 28 (6722).

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va ilmiy adabiyotlar sharhi <https://www.yorku.ca/>; <https://en.usst.edu.cn/>; <https://www.calstate.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.pau.edu.tr/pau/en/>; <https://www.yale.edu/>; <https://www.ox.ac.uk/>; <https://www.monash.edu/>; <https://www.bradford.ac.uk/external/>; <https://www.msu.ru/>; <https://uzswlu.uz/>; <https://tsuos.uz/>; <https://samdchti.uz/ru/>; <https://buxdu.uz/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, dunyo bo‘ylab ilg‘or ilmiy tadqiqotlar va nazariy izlanishlar ushbu sohada turli muhim xulosalarni York University of Canada (Kanada), Moskva davlat universiteti (RF), University of California (AQSh), Shanghai University of Science and Technology (Xitoy), University of Chicago (AQSh), Pamukkale University (Turkiya), Yale University (AQSh), University of Monash (Avstraliya), Oxford University (Angliya), University of Bradford (Buyuk Britaniya) va Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) kabi yetakchi ilmiy markazlarning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Nutqiy tejamkorlik va olamning lisoniy manzarasi atrofida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar asosida York University (Kanada) va Moskva davlat universiteti (RF) ilmiy tadqiqotchilari nutqiy tejamkorlik va uning tilshunoslikka ta’siri; University of California (AQSh), Shanghai University of Science and Technology (Xitoy) va University of Chicago (AQSh) universitetlari intertekstuallikning tarjima nazariyasidagi rolini va uning tarjimon psixologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi; Oxford University (Angliya) va University of Bradford (Buyuk Britaniya) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, olamning lisoniy manzarasi va uning turli tillarda qanday ifodalanishi, nutqiy tejamkorlikning milliy madaniyatga qanday moslashganini hamda lingvistik xususiyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning etakchi ilmiy muassasalari, jumladan, Toshkent davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti va Buxoro davlat universiteti ilmiy izlanishlari milliy madaniyat va tilshunoslik kontekstida nutqiy tejamkorlik va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasidagi aloqalarni, milliy madaniyatning nutqiy ifodalar va tilshunoslikdagi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqali til va madaniyatning bir-biriga qanday ta’sir qilayotganini ko‘rsatadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida tejamkorlik tamoyili xususiyatlari bo‘yicha qator fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va tahlil etilgan. Ayniqsa A.Nurmanov³, N.Maxmudov⁴, N.Maxkamov⁵, J.Eltazarov⁶, G‘.Zikrillayev⁷ kabi olimlarning ilmiy ishlarida tilshunoslikning ushbu tamoyili nazariy yoritilgan. Ular o‘zbek tilining nutqiy jarayonlarini va uning madaniy kontekstda qanday ifodalanishini o‘rganishgan. Xususan, nutqiy tejamkorlik va milliy madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zbek tilida qanday tarzda o‘z aksini topishi, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Z.I.Rasulovning⁸ ilmiy ishlarida nutqiy jarayonlar va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar tahlil qilingan, ayniqsa o‘zbek tilida nutqiy tejamkorlik va

³ Нурманов А. Принцип эканомии в фонетических изменениях узбекского языка. Дис.... канд. филол. наук. – Т., 1973.

⁴ Махмудов Н.Н. Эллипсис в узбекском языке. Дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1977.

⁵ Махкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988.

⁶ Элтазаров Ж. Тилдаги тежамлилиқ тамойили ва қисқарув. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 22 б.

⁷ Зикриллаев Ғ. Рух ва тил. –Т.: Фан, 2018. – Б. 344-447.

⁸ Расулов З.И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашув(инглиз ва ўзбек тиллари мисолида):Монография. – Бухоро, 2022. –168 б.

olam lisoniy manzarasi tasvirining milliy xususiyatlarini o'rganishga katta ahamiyat berilgan.

Garchi ushbu mavzu bo'yicha ba'zi ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, nutqiy tejamkorlik va olam lisoniy manzarasi tasvirining milliy madaniy xususiyatlarini o'rganish doirasida monografik tadqiqotlar hali to'liq yakunlanmagan. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillaridagi nutqiy ifodalar, ularning qisqartirilishi va bu jarayonning voqelanishida tillardagi farqli jihatlarni madaniy va lingvistik omillarni hisobga olgan holda chuqur tahlil qilishga ehtiyoj mavjud. Shu bilan birga, nutqiy tejamkorlikda milliy madaniyatning til orqali aks etishi, nutqiy tejamkorlikning madaniy xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Jahon miqyosda, tilshunoslik sohasida P.Passi⁹, V.Uitney¹⁰, H.Svit¹¹, E.Sapir¹², G.Pol¹³, V.D.Devkin¹⁴, O.Yespersen¹⁵ va B.Uorf¹⁶ kabi olimlarning ishlarida tilning madaniyatga ta'siri va madaniyatning tilda qanday aks etishi to'g'risida keng qamrovli tahlillar mavjud. Ularning nazariyalari, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish va lisoniy manzara tasvirini o'rganishga asos bo'lgan. L.A.Buskunbayeva T.N.Glyansova G.G.Infantova O.A.Shpak¹⁷ ham o'z ishlarida nutqiy tejamkorlikning turli javhalarini tadqiq etishgan. Shuningdek, tilshunoslikning kommunikativ va pragmatik jihatlari, ya'ni nutqiy ifodalarning qanday qisqartirilishi va voqelanishi, madaniy va milliy xususiyatlarni qanday aks ettirishi to'g'risidagi tadqiqotlar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu sababli bu dissertatsiya o'zbek va ingliz tillarida nutqiy tejamkorlik va olam lisoniy manzarasi tasvirining milliy madaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilishda yangicha yondashuvlarni taklif etadi. Bu ishda o'zbek va ingliz tillaridagi nutqiy jarayonlar va ularning milliy madaniyatga ta'siri, shuningdek, nutqiy tejamkorlik va olam lisoniy manzarasi tasvirining tillardagi ifodalanish xususiyatlari taqqoslanadi.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining 2021-2026-yillarga mo'ljallangan "Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirilgan.

⁹ Passi Paul. Sociolinguistics and the Sociology of Language: Textbook. Cambridge, 1981. – 350 p.

¹⁰ Whitney V. The Life and Growth of Language: Book. Boston, 1875. – 400 p.

¹¹ Sweet Henry. The History of English Sounds: Book. Oxford, 1890. – 450 p.

¹² Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech: Book. New York, 1921. – 300 p.

¹³ Paul G. Principles of the History of Language: Book. London, 1880. – 480 p.

¹⁴ Devkin V.D. Fundamentals of Linguistic Typology: Monograph. Moscow, 1975. – 320 p.

¹⁵ Jespersen O. Language: Its Nature, Development, and Origin: Book. New York, 1922. – 360 p.

¹⁶ Whorf B.L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf: Book. Cambridge, 1956. – 500 p.

¹⁷ Бускунбаева, Л. А. Закономерности речевой экономии в башкирском языке. – Уфа, 2009. Глянцева, Т. Н. Экономия сегментных средств в речи младших школьников. – Таганрог, 1998. Инфантова, Г. Г. Экономия сегментных средств в синтаксисе современной русской разговорной речи. – Таганрог, 1975. Шпак О. А. Совмещение как проявление принципа речевой экономии в современном английском языке. – Львов, 1990.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari misolida olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nutqiy tejamkorlik fenomenining nazariy asoslarini tahlil qilish orqali mazkur hodisaning ilmiy-nazariy mohiyatini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning fonetik, morfologik va sintaktik sathlarda namoyon bo'lish shakllarini aniqlash, til strukturasi xos bo'lgan qisqartma vositalarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish;

nutqiy tejamkorlikda lingvokognitiv tamoyillarni aniqlash va ularning nutq strukturadagi o'rnini belgilash, mazkur jarayonda madaniy va milliy xususiyatlarning ifodalanishini tadqiq etish;

ekstralingvistik vositalarning (imo-ishora, tana harakati, rang, ramzlar) qisqa va samarali nutq ifodalarini shakllantirishdagi roli va funksiyasini aniqlash, ular orqali vujudga keladigan multimodal muloqotning tilshunoslikdagi ahamiyatini tahlil qilish;

audiovizual vositalar va ekranizatsiya mahsulotlari (kino, reklama, teleko'rsatuvlar)da nutqiy tejamkorlik tamoyillarining qo'llanishini aniqlash;

nutqiy tejamkorlik jarayonida genderga oid kommunikativ xatti-harakatlarni tahlil qilish;

ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning o'xshash va farqli tomonlarini lingvistik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, har ikki tilga xos qisqartma ifodalar va ularning kommunikativ samaradorlikdagi o'rnini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy adabiyot namunalari, ijtimoiy tarmoqlararo (virtual) hamda jonli kommunikatsiyada nutqiy tejamkorlikni voqelantirgan lisoniy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillari misolida olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy, lingvopragmatik, funksional-kommunikativ, kontekstual, kognitiv hamda interpretativ tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishi zarurati inson tafakkurida shakllangan konseptual tuzilmalarni minimal lisoniy vositalar orqali maksimal axborot sig'imi bilan voqelantirish ehtiyoji sababli muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intentsiyasi, ruhiy holati, fundamental bilimi, nutqiy vaziyat diskursi uyg'unligida namoyon bo'lishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi nutqiy tejamkorlik fenomeni fonetik sathda tovushlarning qisqarishi, assimilyatsiya, eliziya, morfologik-sintaktik sathlarda affikslarning qisqarishi, abbreviatura, ellipsis, leksik sathda frazali fe'llar, sinonimlar va qisqa iboralar samaradorligida shakllanganligi va insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligi dalillangan;

har ikkala til nutqiy tejamkorlik jarayonida fonetik o'zgarishlar, frazali fe'llar va iboralar orqali nutqni qisqartirish, shakllarning qisqarishi unumdorligi

aniqlanib, ingliz tilida polisemantik frazali fe'llar ko'proq ishlatilsa, o'zbek tilida bunday frazalar asosan ma'lum kontekst negizida voqelanishi aniqlangan;

olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari ingliz va o'zbek tillari qatlamlarida lingvistik birliklar, stilistik vositalar hamda badiiy tasvirlar orqali ifodalanilib, ingliz tilida ingliz madaniyatiga xos "efficiency" (samaradorlik) va "simplicity" (soddalik) tamoyillari asosida namoyon bo'lsa, o'zbek tilida "supressiya" nutqni qisqartirish, so'z yoki iboralarni chiqarib tashlash orqali to'g'ridan to'g'ri samimiy muloqotga intilishda ifodalanishi asoslangan;

Chog'ishtirilayotgan tillarda nutqiy tejamkorlik jarayonida ekstralingvistik vositalar – imo-ishora, tana harakatlari, kontekstual ramzlar va raqamli vizual elementlar muloqotni qisqa, aniq va mazmunli qilish bilan birga, milliy madaniyatni ham voqelantirishda kommunikativ mazmunni minimal verbal birliklar hisobiga maksimal darajada ifodalash va milliy-madaniy konseptlarni implitsit tarzda reallashtirish imkonini berishi sababli birlamchi qiymat kasb etishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nutqiy tejamkorlik fenomeni zamonaviy tilshunoslikda kognitiv-kommunikativ tamoyillar asosida tahlil qilinib, qisqa, aniq va mazmunli ifoda yaratishning ilmiy asoslari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning fonetik, morfologik va sintaktik sathlarda voqelanishi o'rganilib, struktural komponentlarning qisqartirilgan nutqdagi roli lingvistik mezonlar asosida asoslangan;

madaniy va kognitiv omillarning nutqiy tejamkorlikka ta'siri lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil qilinib, samarali nutq modelini yaratishdagi funksional omillar dalillangan;

ekstralingvistik vositalar qisqartirilgan kommunikatsiyadagi funksional yukini ko'rsatuvchi tizimli tahlil orqali asoslangan, shuningdek, genderga oid nutqiy tejamkorlik strategiyalari psixopragmatik va diskursiv asosidagi tahlili orqali nutq iqtisodining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilgan yondashuv va usullar, tilshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarga tanqidiy munosabat va zamonaviy tilshunoslikda asos bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy xulosalardan foydalanilganligi, ko'p sonli ingliz tilidagi badiiy matnlarning tahlilga tortilganligi, tadqiqot natijalari ishning nazariy jihatlariga mosligi, tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalar tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarda o'z aksini topganligi, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi, milliy-madaniy tamoyillarning lingvistik ifodalanish xususiyatlari tarjimonlarga madaniy kontekstni hisobga olgan holda aniq va samarali tarjimalar yaratish, tarjima amaliyotida, til o'qitish metodologiyasini takomillashtirishda, shuningdek, madaniyatshunoslik fanlarini

o'qitishda foydalanish uchun o'quv dasturlari hamda qo'llanmalarni boyitishga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida grammatika, stilistika, leksikologiya fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, lingvokognitiv yondashuv asosida darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda manba xizmatini o'tashi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillari misolida olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

olamning lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishi zarurati muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intentsiyasi, ruhiy holati, fundamental bilimi, nutqiy vaziyatga bevosita bog'liq ekanligi va mazkur jihatlar muayyan kontekstda namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida OT-F1-029 sonli "O'zbek davlatchiligi tarixida sug'diy til va yozuvining tutgan o'rni (mil.av.II – milodiy XII asrlar)" mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-apreldagi 04/1-1341-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyadagi lisoniy-kognitiv yondashuv tilni nafaqat grammatika yoki sintaktik nuqtayi nazaridan, balki uni ma'naviy va kognitiv jihatdan ham o'rganish tarixini, qadimgi o'zbek xalqining tafakkur tarzi, ifoda uslubi, kommunikativ madaniyatini ochib berishda xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi nutqiy tejamkorlik fenomeni fonetik sathda tovushlarning qisqarishi, assimilyatsiya, eliziya; morfologik-sintaktik sathlarda affikslarning qisqarishi, abbreviatura, ellipsis; leksik sathda frazali fe'llar, sinonimlar va qisqa iboralar samaradorligida shakllanganligi va insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzuidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-apreldagi 04/1-1340-son ma'lumotnomasi). Natijada nutqiy tejamkorlikni o'rganish orqali o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratishda misollar va o'rganish metodlaridan foydalanilgan;

har ikkala til nutqiy tejamkorlik jarayonida fonetik o'zgarishlar, frazali fe'llar va iboralar orqali nutqni qisqartirish, shakllarning qisqarishi unumdorligi aniqlanib, ingliz tilida polisemantik frazali fe'llar ko'proq ishlatilsa, o'zbek tilida bunday frazalar asosan ma'lum kontekst negizida voqelanishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-apreldagi 04/1-1342-son ma'lumotnomasi). Natijada nutqiy tejamkorlik jarayonida lingvokognitiv va milliy-madaniy xususiyatlari borasidagi materiallardan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va o'zbek olamining lisoniy manzarasi tasvirida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari til qatlamlarida lingvistik birliklar, stilistik vositalar hamda badiiy tasvirlar orqali ifodalanilib, ingliz tilida ingliz madaniyatiga xos "efficiency" (samaradorlik) va "simplicity" (soddalik) tamoyillari asosida namoyon bo'lsa, o'zbek tilida "supressiya" nutqni qisqartirish, so'z yoki iboralarni chiqarib tashlash orqali to'g'ridan to'g'ri samimiy muloqotga intilishda ifodalanishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42. "O'zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe'l-atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 11-apreldagi 04/1-1343-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillaridagi milliy-madaniy mazmun bilan bog'liq natijalardan elektron poetik lug'atga obrazlarni ixcham, ammo mazmunli ifodalash imkonidan foydalanilgan;

qiyoslanayotgan tillarda nutqiy tejamkorlik jarayonida ekstralingvistik vositalar imo-ishora, tana harakatlari, kontekstual ramzlar va raqamli vizual elementlar muloqotni qisqa, aniq va mazmunli qilish bilan birga, milliy madaniyatni ham voqelantirishda birlamchi qiymat kasb etishiga oid nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan Erasmus+dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC) mavzuidagi xorijiy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 20-martdagi 04/11-3935-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarga loyiha doirasida trening o'tkazishda nutq tejamkorligidan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi nutqiy tejamkorlikning milliy-madaniy xususiyatlari xalqning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy hayotga ta'sirini metafora, metonimiya, allegoriya, ironiya, mubolag'a, qisqartirish kabi uslubiy vositalar orqali ifodalanib, ular tilning iqtisodiyligi va kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qilishiga doir xulosa va natijalardan O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'iga asosan berilgan № 676-104-raqamli nashr guvohnomasi asosida 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Til aspektlari amaliyoti (kommunikativ grammatika)" nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 11-apreldagi 11-05-2264/04-son ma'lumotnomasi). Natijada nutq tejamkorligi fenomenining milliy-madaniy xususiyatlariga doir nazariy hamda faktik materiallar orqali o'quv adabiyoti mazmuni takomillashtirilgan

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro va 6 ta mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda

20 ta maqola, jumladan, 17 tasi respublika va 3 tasi xalqaro jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 211 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriylanishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Nutqiy tejamkorlik muammosida kognitiv-kommunikativ yondashuv ahamiyati”** deb nomlangan bo'lib, unda nutqiy tejamkorlik muammosining lingvistikada o'rganilish tarixi, lisoniy-kognitiv yondashuv hamda uning matn tahlilida ahamiyati, nutqiy tejamkorlik jarayonida kognitiv-kommunikativ yondashuv tamoyillari haqida nazariy ma'lumotlar o'rganilib, nutqiy tejamkorlik masalasi lingvistika va kognitiv tilshunoslik sohalaridagi tadqiqotlar orqali tahlil qilingan.

XX asrning birinchi yarmida G.K.Zipfning “ko'p mehnat sarflamaslik qonuni” va O.Yespersenning nutqdagi tejamkorlik va soddalashtirish jarayonlarini o'rganish bilan boshlangan bu yo'nalish, kognitiv yondashuvlar va zamonaviy metodlar orqali yanada boyitildi. Nutqiy tejamkorlik jarayoni nafaqat grammatik yoki sintaksis, balki tilning ma'naviy va kognitiv nuqtayi nazaridan ham o'rganilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Ushbu bobda nutqiy tejamkorlikning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan bo'lib, xorijiy olimlarning yondashuvlari, xususan, Andre Martinetning ikki bo'g'inlilik nazariyasi, Roman Yakobsonning semiotik tahlili, Noam Chomskiy minimalizm nazariyasi, Uilliam Kroftning evolutsion yondashuvi, Peter H. Metyuvning morfologik tejamkorlik tahlili va Duglas A. Kibbi tadqiqotlari tahlili orqali tilning tejamkorligi va uning tamoyillari ochib berilgan.

Nutqni tejash prinsipi amerikalik lingvist Jorj Kipling Hil tomonidan 1940-yillarda taklif qilingan. U so'zlovchining muloqot jarayonida minimal kuch sarflashga intilishini, o'z fikrlarini eng qisqa va samarali tarzda ifodalashni afzal ko'rishini ta'kidlagan.

Ushbu prinsip 1960-yillarda Jon Serl va Jon Ostin tomonidan ishlab chiqilgan Nutqiy akt (Speech Act Theory) nazariyasiga kiritilgan. Ular nutq jarayonida so'zlovchi zarur bo'lgan ma'lumotni taqdim etishi, ortiqcha so'zlarni ishlatmasligi haqida gapirib, “miqdor maksimasi” konsepsiyasini taklif qilishdi.

Nutqiy tejamkorlik muammosi bir necha ilmiy maktablar va lingvistik yo'nalishlarda o'rganilgan. Jumladan:

1. Pragmatika tilni muloqot kontekstida ishlatishni o'rganadi. Ushbu sohadagi tilshunoslar xorijiy tilda so'zlovchilarning qanday qilib minimal vositalar

yordamida o'z fikrlarini maksimal samaradorlik bilan ifodalashlarini tadqiq etishadi. Nutqiy tejamkorlikning pragmatik jihatlari Paul Grays va Herbert H. Klark kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

2. Kognitiv lingvistika til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganadi. Ushbu yo'nalishda xorijiy tilda so'zlovchilar qanday qilib ma'lum chegaraga ega xotira va resurslarni hisobga olib, o'z nutqlarini tashkil etishlari o'rganiladi. Kognitiv lingvistika bo'yicha mashhur olimlar Jorj Lakof va Martin Hilpert nutqiy tejamkorlikni tadqiq qilishga salmoqli hissa qo'shganlar.

3. Nutqiy akt nazariyasidan Kommunikativ maqsadlarga erishish maqsadida foydalanish tavsiya etiladi. Jon Serl va Paul Li kabi tadqiqotchilar bu nazariya doirasida nutqni tejash prinsiplari va mexanizmlari haqida fikr yuritdilar.

4. Generativ grammatika til va uning strukturasini o'rganishning usullaridan biridir. N.Chomskiy tilshunoslikda tilning tejamkorlik tamoyilini bevosita muhokama qilmagan bo'lsa-da, uning Generativ grammatika nazariyasi va minimalizm yondashuvi tilda tejamkorlikka oid dolzarb masalalarni qamrab oladi.

Tilshunoslikning muhim tamoyillardan biri hisoblangan nutqiy tejamkorlik tushunchasi inson muloqotining samaradorligini oshirishga, ortiqcha elementlarni qisqartirishga va kommunikativ jarayonlarni soddalashtirishga qaratilgan. Ushbu hodisa tilshunoslik, pragmatika, fonetika, morfologiya va sintaksis doirasida o'rganilgan. Tadqiqotchilar, jumladan, Aristotel, P.Grays, N.Chomskiy, O.Yespersen va A.Martine kabi olimlar nutqiy tejamkorlikning asosiy jihatlari ta'riflab, uning lingvistik va kognitiv asoslarini o'rganishgan.

Quyidagi jadvalda turli olimlarning nutqiy tejamkorlik haqidagi fikrlari umumlashtirilgan.

Jadval 1. Tejamkorlikning o'rganilish aspektlari

Nazariya	Asosiy G'oya
Aristotel va qadimgi yondashuvlar	Nutqning auditoriyaga tushunarli, maqsadga yo'naltirilgan va ta'sirli bo'lishida uning qisqa va aniq ifodlanganligi ahamiyati (buning nutq tejamkorligi asosida ham erishilishi ya'ni, ko'p so'zlash o'rniga qisqa va ma'noli gaplardan, fikrni iqtibos va iboralardan foydalanib yetkazishda namoyon bo'lishi).
P.Grays va kommunikativ maksimalar	Minimal, lekin yetarlicha mazmunli nutq tamoyili (tejamkorlik til resurslarini qisqartirish emas, balki fikrni ifodalash ehtiyojlari kabi omillar bilan birgalikda ortiqchaliklarni bartaraf etgan holda, til resurslarini yanada tejamkorlik usullari yordamida kengaytirishdir). Nutq tejamkorligi pragmatik nuqtayi nazardan konversatsiya tushunchasi va uning sifat, miqdor, aniqlik va moslik maksimalari bilan bog'liq holda o'rganilgan.
N.Chomskiy va generativ grammatika	Minimalizm orqali samarali nutq shakllantirish haqidagi fikrlari 1) tilning murakkablik va tejamkorlik o'rtasidagi muvozanatini saqlab turuvchi universallik tamoyili, 2) tejamkorlik tamoyili (Economy Principle), minimal harakat tamoyillariga (Minimal Link Condition) asoslangan minimalistik dastur, 3) inson miyasida paydo bo'ladigan til

	tuzilmalari imkon qadar samarador, tejamkor va ma'noli bo'lishga qaratilgan optimal tuzilma yaratish tamoyili, 4) til o'zining semantik ma'nosini saqlagan holda sintaktik jarayonlarda tejamkorlikni ta'minlovchi ortogonal talablar kabi lingvistik strukturalarning samaradorlik darajasi va universal tamoyillarga asoslangan holda tushuntirilgan.
O.Yespersen va fonetik tejamkorlik	Talaffuzdagi qisqarishlar va fonetik o'zgarishlar. Bunda tejamkorlik bitta shaklda bir nechta mazmunni ifodalashda, shakllarni qisqartirishga intilishda, "suppressiya" holatida, belgilangan tovushlarni talaffuz qilishda mushak kuchini tejashda kabi nutqdagi harakatlarning tejamkorlik tendensiyasi asosida sodir bo'lishi va u til taraqqiyotining belgisi ekanligi ta'kidlanadi.
A.Martine va lingvistik tejamkorlik	Pragmatik va sintaktik jihatdan nutq samaradorligini oshirish. "Inson tilida muloqot vaqtida sarflanadigan energiya yetkazilayotgan axborot miqdoriga proporsional bo'lishi kerak" degan fikr orqali tejamkorlik prinsipini til tizimining barcha qatlamlarida kuzatilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Nutqiy tejamkorlik hodisasining nafaqat lingvistik, balki psixologik va sotsiologik jihatlar ham mavjud. Masalan, odamlar kundalik muloqotda vaqtni tejash va fikrni tezkor tushuntirish uchun qisqartirish va soddalashtirish usullaridan foydalanadilar. Xususan, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor xabar almashish tizimlari nutqiy tejamkorlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Tilda, ayniqsa fonetik qatlamda, tejamkorlik muammosini P.Passy, V.Uitney, H.Svit va O.Yespersen G.Kurtsius¹⁸ kabi olimlar o'rganishgan.

R.Budagov¹⁹ tilda tejamkorlik hodisasini ikki turga, ya'ni tilning ayrim qismlaridagi tejamkorlik va til rivojlanishi hamda faoliyat yuritishdagi muhim jarayon, "umumiy tushuncha sifatidagi tejamkorlik"ka ajratish zarurligini ta'kidlaydi.

Bobda tilni lisoniy-kognitiv yondashuv asosida tahlil qilishning ahamiyati ko'rsatilib, ushbu yondashuv tilni qanday ishlashini, so'z va iboralarning ma'nosini qayta ishlash yo'llarini, shuningdek, muloqotdagi mantiqiy va kognitiv jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini berishi ta'kidlangan. Kognitiv-lisoniy yondashuv til o'rgatishda, kommunikativ maqsadga erishishda va tejamkorlikning qanday qo'llanilishini tushunishda muhim o'rin tutadi.

Lisoniy tejamkorlik tilning samarali va qisqargan shaklda ma'lumot uzatish jarayonini anglatadi. Bu tushuncha, ayniqsa, kognitiv tilshunoslikda, tilni qanday

¹⁸ Passy Paul. Sociolinguistics and the Sociology of Language: Textbook. Cambridge, 1981. – 350 p. Whitney V. The Life and Growth of Language: Book. Boston, 1875. – 400 p. Sweet Henry. The History of English Sounds: Book. Oxford, 1890. – 450 p. Jespersen O. Language: Its Nature, Development, and Origin: Book. New York, 1922. – 360 p. Curtius Georg. Griechische Schulgrammatik. 1862. – 311 p.

¹⁹ Будагов Р. А. Определяет ли принцип экономии развитие и функционирование языка? Журнал// Вопросы языкознания. – М., 1972. – № 1. – С. 17-36.

qilib minimal resurslar bilan samarali ishlatishni o'rganishga qaratilgan. Lisoniy tejamkorlik ko'plab tadqiqotlarda, masalan, A.Martine²⁰ va E.Koseriu²¹ nazariyasida, tilni "vazifani bajarish uchun mavjud" tizim sifatida qarash orqali tasvirlangan. Bu jarayon nafaqat grammatik va leksik, balki pragmatik va kognitiv omillarni ham o'z ichiga oladi. Kognitiv yondashuv, tilni va nutqni o'rganishda inson miyasi qanday qilib tilni samarali ishlatish bo'yicha qarorlar qabul qilishini tushunishga yordam beradi.

Til sistemasi har xil birliklar, modellar va ularning qo'shilishi qoidalari mavjudligi bilan tavsiflanadi. Biroq, til sistemasi shunchaki elementlarning yig'indisi emas. Shu sababli til darajasidagi (qatlamini) ma'lum birliklar majmuasi bilan bog'lash zarurati shubhasizdir. Til tizimida turli tashkil etish darajalari mavjudligi, ya'ni tilning tuzilishini aks ettiruvchi darajalar mavjudligi va ularning ajratilishi tadqiqotchining nuqtayi nazaridan emas, balki tizimning o'zi tomonidan taqozo etilgani haqida taxmin qilinadigan bo'lsa, avvalo, til tizimidagi turli birliklarning o'rnini aniqlash uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladigan barcha til birliklariga xos umumiy xususiyatlar mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash kerak. Barcha til birliklari o'zaro munosabatda namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar, umumiy tarzda, uch asosiy turga ajratiladi: sintagmatik, paradigmatic va iyerarxik.

Matnni tilning integrativ birligi sifatida tan olish uning muloqot birligi ekanligini yanada teranroq tushunish imkonini yaratadi. Shuningdek, til birliklari iyerarxiyasini quyidagicha belgilash mumkin (1-rasm):

1- rasm



Buni quyidagicha izohlash mumkin: matn gaplar yoki gaplar guruhidan iborat. Gap so'zlardan tashkil topadi. So'z kamida bitta morfemadan iborat va u fonemalarga bo'linadi yoki birgina fonemadan iborat bo'ladi.

Kognitiv-kommunikativ yondashuv nafaqat lingvistik birliklarni o'rganishni, balki ular yordamida hosil bo'ladigan ma'nolarni ham tahlil qilishni maqsad qiladi. Kognitiv lingvistika doirasida matn tahlili birlamchi ahamiyatga ega bo'lib, tahlil jarayonida matndagi lingvistik birliklar orqali dunyoqarashning milliy-madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Matn tahlilining quyidagi usullarini qayd etish mumkin:

1. *Leksik-semantik tahlil*. Matndagi so'zlar va ularning semantik xususiyatlari milliy-madaniy ma'nolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, "home" va "uy" so'zlari orqali ingliz va o'zbek madaniyatlaridagi "yashash joyi, boshpana" tushunchasining farqlari o'rganilishi mumkin.

2. *Konseptual tahlil*. Matnda ifodalangan asosiy konseptlar (masalan, erkinlik, sevgi, vatanparvarlik) tahlil qilinadi va ularning madaniy asoslari o'rganiladi²². J.Lakoff va M.Jonson tomonidan ishlab chiqilgan metafora nazariyasi konseptlarni o'rganishda asosiy yo'nalish hisoblanadi.

²⁰ Мартин А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. Вып.3. – М.: Прогресс, 1963. – С. 366-566.

²¹ Coseriu E. Structural semantics and "cognitive" semantics. Logos and language. Vol.1.N.1 Tubingen, 2000. –17p.

²² Lakoff, G. & Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. –193 p.

3. *Pragmatik tahlil*. Matndagi pragmatik belgilar (intonatsiya, kontekstual ko'rsatmalar) nutq jarayonida qanday kognitiv mexanizmlar ishga tushishini aniqlaydi²³.

Lisoniy-kognitiv tahlil orqali matndagi lingvistik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi va matnning ichki semantik qatlamlarini ochib berish mumkin bo'ladi. Masalan, metaforik tuzilmalar, ya'ni matnda ishlatilgan metaforalar orqali milliy-madaniy dunyoqarash ochib beriladi²⁴, yoki deysis va referens birliklarining tahlili matndagi lingvistik bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi.

Matn tahlilida kognitiv-lisoniy usullarning quyidagi ko'rinishlari qo'llaniladi:

1. Diskursiv tahlil. Matndagi lingvistik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinib, matndagi sinonimlar va antonimlar orqali fikrni tejamkor ifodalash usullari o'rganiladi.

2. Madaniyatlararo tahlil. Ingliz va o'zbek tillarida ishlatilgan lingvistik birliklarning madaniyatlararo xususiyatlari taqqoslanadi²⁵.

3. Korpus tahlili. Ingliz va o'zbek matnlaridan olingan ma'lumotlar korpusi asosida lingvistik birliklarning milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kognitiv-kommunikativ yondashuvning nutqiy tejamkorlikka ta'siri quyidagilardan iborat:

1. Ma'lumotni qayta ishlash samaradorligi. Kognitiv yondashuv orqali odamlar til birliklarini tezroq qayta ishlashga o'rgatiladi. Masalan, sinonimlardan foydalanib, qisqalikni ta'minlash yoki keraksiz grammatik strukturalarini kamaytirish mumkin: "*Men bugun ertalab nonushta uchun uyimdan chiqib, do'konga bordim va bir nechta mahsulotlar sotib oldim*" o'rnida qisqartirilgan va samarali variant "*Men bugun nonushtalik uchun do'konga bordim*" ko'rinishida bo'ladi.

2. Kontekstual ma'noni ta'kidlash. Kognitiv-kommunikativ yondashuv kontekstni chuqur anglash orqali kerakli ma'noni aniqlab beradi. Bu esa nutqiy tejamkorlikka yordam beradi, zero bunda ma'lumot ortiqcha tushuntirishsiz ham tushunarli bo'ladi. Misol uchun, kimdir ish joyida, ofisda, "*Men bu ishni bugun tugatishim kerak*" desa, gap aytilgan joy va vaziyat, ya'ni kontekst aniqligi, fikrning ma'nosi ortiqcha izohlarsiz tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

3. Qo'shimcha resurslardan foydalanish. Imo-ishoralar, intonatsiya va boshqa noverbal kommunikatsiya usullari orqali ma'lumotni qisqa va samarali yetkazishni ta'minlaydi.

Nutqiy tejamkorlikni ta'minlashda kognitiv-kommunikativ yondashuvning yordami quyidagilardan iborat:

a) ma'lumotni minimallashtirish – yondashuv maqsadli axborotni kontekst orqali yetkazishga urg'u beradi (masalan, "*Kelasi dushanba kuni yig'ilish bo'ladi*" o'rniga "*Dushanba yig'ilish!*" kabi qisqartirishlardan foydalanish);

²³ Levinson, S. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.

²⁴ Lakoff G. *Women, Fire, and Dangerous Things*. Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.

²⁵ Wierzbicka A. *Cross-Cultural Pragmatics*. Berlin: Mouton de Gruyter, 1996. – 498p.

b) asosiy ma’noni saqlash – nutqni qisqartirish jarayonida mazmun saqlanilib, kognitiv-kommunikativ yondashuv orqali muvozanat ta’minlanadi;

c) o’rganuvchilarni muloqotga moslashtirish – bu yondashuv til o’rganuvchilarini har xil nutqiy vaziyatlarda o’z fikrlarini aniq, qisqa va ravon bayon qilishga o’rgatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o’zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning til sathlarida voqelanishi”** deb nomlangan bo’lib, unda ingliz va o’zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, stilistik kabi til sathlarida voqelanishi, nutqiy tejamkorlikka erishishda til sathlari va undagi audiovisual hamda akademik diskurs integratsiyasi masalalari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobda ingliz va o’zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Ingliz tilida nutqiy tejamkorlik asosan frazali fe’llar, iboralar va so’zlar orqali namoyon bo’ladi. Bu tilning o’ziga xos xususiyatiga taalluqli bo’lib, ingliz tilida frazalarning polisemantikligidan dalolat beradi va nutqni qisqartirish va samarali ifodalashga yordam beradi. Ingliz tilidagi frazali fe’llar grammatik shakllarni qisqartirish imkonini yaratadi, masalan, bir fe’lning bir nechta ma’nolarda ishlatilishi yoki hozirgi va o’tgan zamonlarni fe’lning bir shaklida ifodalanishi bunga misol bo’ladi. Bundan tashqari, ingliz tilida shakllarning qisqarishi (contraction), ortiqcha so’zlarning chiqarilishi va fonetik o’zgarishlar orqali ham nutqiy tejamkorlik amalga oshiriladi.

O’zbek tilida ham nutqiy tejamkorlik frazali fe’llar va iboralar orqali ifodalanadi. O’zbek tilidagi frazalar ham ko’pchilik hollarda polisemantik bo’lib, ular orqali boy ma’no anglashiladi va fikrni aniq ifodalashga imkon beradi. Shuningdek, o’zbek tilida fonetik o’zgarishlar, jumladan tovushlarning tushib qolishi yoki qisqarishi, nutqni samarali qilishga xizmat qiladi.

Ingliz va o’zbek tillaridagi nutqiy tejamkorlik jarayonida o’xshashliklar mavjud bo’lib, har ikkala tilda frazali fe’llar va iboralar orqali nutqni qisqartirish, shakllarning qisqarishi va fonetik o’zgarishlar orqali fikrni samarali ifodalashga erishiladi. Shu bilan birga, ular o’rtasida muayyan farqlar ham mavjud: ingliz tilida polisemantik frazali fe’llar keng qo’llanilsa, o’zbek tilida frazalar, odatda, muayyan kontekst bilan bog’liq bo’lib, polisemantik xususiyat nisbatan kamroq namoyon bo’ladi.

Ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning birinchi sathi *fonetik* bo’lib, tovushlarning qisqarishi, assimilyatsiya, eliziya va reduksiya jarayonlari orqali namoyon bo’ladi. Misol sifatida “I don’t know” iborasining qisqartirilgan “I dunno” shakli keltiriladi. Jorj Orvelning “1984” asaridagi dialog misollari, shuningdek, kundalik nutqda “going to” ning “gonna” shaklida ifodalanishi tilning tabiiy tejamkorlik tamoyilini aks ettiradi. Ushbu jarayonlar nafaqat talaffuzni soddalashtiradi, balki nutqning tezligini oshirib, axborotni samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Morfologik sathda nutqiy tejamkorlik so’z shakllarining ixchamlanishi, affikslarning minimallasuvi va abbreviaturalar orqali yuz beradi. Masalan, J.K. Rowling asarlarida “*Dumbledore’s got to go. He’s busy,*” “*He’s*” (*he is*) va “*Dumbledore’s got to*” (*has got to*) kabi birliklarning qisqartirilgan shaklda

berilishi keng qo'llaniladi. Bu usul til strukturasi murakkabligini kamaytirib, muloqotda so'zlarning tez va samarali yetkazilishini ta'minlaydi.

Sintaktik sathda nutqiy tejamkorlik gap tuzilmalarining ixchamlashuvi orqali namoyon bo'ladi. P.Grays o'zining "miqdor maksimasi"da ta'kidlaganidek nutqda axborot keragidan ortiq bo'lmasligi lozim. Ellipsiya, ya'ni ba'zi so'zlar yoki gap qismlarining tushirib qoldirilishi orqali gapning asosiy ma'nosi saqlanib qolinadi. Masalan, "*Do you want some coffee?*" o'rnida "*Want some coffee?*" degan qisqartirish muloqotda tezkorlik va aniq ifoda usuli sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, fikrning murakkab gaplar o'rnida parataksis, ya'ni oddiy va sodda gaplar yordamida ifoda etilishi ham nutqiy tejamkorlikni kuchaytiradi.

Leksik sathda nutqiy tejamkorlik qisqa va universal so'zlar, frazali fe'llar, sinonimlar va qisqa iboralardan foydalanish orqali ifodalanadi. Masalan, "*take up*" kabi frazali fe'l orqali ko'p ma'no ifodalanishi til ixchamligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, leksik tanlovda ortiqcha so'zlardan qochish, sinonimlr qatorida qisqalariga ustunlik berish orqali nutq yanada aniq va samarali bo'ladi.

Nutqiy tejamkorlik nafaqat individual so'z va gaplarda, balki butun matnda ham namoyon bo'ladi. *Matn darajasida* axborotning takrorlanishidan qochish, qisqa jumlar yordamida murakkab ma'lumotlarni ixcham ifodalash, metafora, simbolika, o'xshatish kabi stilistik vositalardan foydalanish orqali nutq yanada samarali va sodda shaklga keladi. Masalan, F. Skot Fitzjeraldning "The Great Gatsby" asaridagi qisqa, lekin mazmunli iboralar, Oskar Uayld va Uilyam Shekspir singari yozuvchilarning qisqalik tamoyili bu jarayonni yanada oydinlashtiradi.

F. Skot Fitzjeraldning "The Great Gatsby" asaridan misol:

1) "*So we beat on, boats against the current...*". Qisqa, poetik jumla, umidsizlik va harakat ramzi.

2) "*I hope she'll be a fool — that's the best thing a girl can be in this world, a beautiful little fool*". Jamiyat tanqidi qisqa va ta'sirli iborada mujassam.

Oskar Uayldning "Lady Windermere's Fan" asaridan misol:

1) "*Be yourself; everyone else is already taken*". Hazil aralash, lekin chuqur hayotiy haqiqatni ifodalagan.

2) "*I can resist everything except temptation*". Qisqa, lekin paradoksal tuzilma orqali hazil va haqiqatni birlashtirgan ibora.

Uilyam Shekspirning "Hamlet" asaridan misol:

1) "*Brevity is the soul of wit*". "Qisqalik — donolikning yuragi", bu iboraning o'zi ham tejamkorlik namunasi.

2) "*To be, or not to be, that is the question*". Juda qisqa bo'lsa-da, ushbu gap chuqur falsafiy mazmunga ega.

Mazkur bobning keyingi fasli o'zbek tilida nutqiy tejamkorlikning til sathlarida namoyon bo'lishiga bag'ishlangan. Ushbu bo'limda o'zbek tilida muloqot jarayonida ortiqcha so'zlardan voz kechish, gaplarning minimal qolipi, affikslarning tushirilishi va sintaktik qisqartirishlar ko'rib chiqiladi.

O'zbek tili *fonetik sathida* nutqiy tejamkorlik ko'pincha tovushlarning qisqarishi, tushirilishi yoki bir-biriga yaqinlashishi orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar og'zaki muloqotda vaqtni tejash, nutqni soddalashtirish va ifodaning

tezligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida bunday fonetik hodisalarga oid ba'zi misollarni keltiramiz:

1. Aferezis (suzish) bu soʻz boshidagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi hodisasi. Masalan, “nechun” (“ne” va “uchun”) va “mullaka” (“mulla” va “aka”) misollarida ikki soʻzning birlashishi natijasida ikkinchi soʻzning birinchi tovushi tushib qolgan.

2. Eliziya (siqish) bu ikki soʻzning birlashishi natijasida biror tovushning tushib qolishi. Masalan: “yoza oladi” → “yozoladi”. Bu yerda “yoza” va “oladi” soʻzlarining birlashishi natijasida “yozoladi” shakli hosil boʻlgan;

“ayta oladi” → “aytoladi”. Bu yerda “ayta” va “oladi” soʻzlarining birlashishi natijasida “aytoladi” shakli hosil boʻlgan.

3. Sinerezis (birlashtirish) bu ikki yonma-yon kelgan unli tovushning birlashtirilishi. Masalan, “saodat”ning “so:dat”, “maori”ning “mo:ri” tarzida talaffuz qilinishi yonma-yon kelgan “a” va “o” unli tovushlarining birlashishi natijasida sodir boʻlgan.

4. Sintez (birlashtirish) bu ikki soʻzning birlashishi natijasida yangi shaklning hosil boʻlishi. Masalan, “ishlardi” (“ishlar” va “edi”) va “borganmi” (“borgan” va “edimi”) soʻzlari, aslida, ikki soʻzning birlashishi natijasida hosil boʻlgan.

5. Akkumodatsiya (moslashish) bu tovushlarning bir-biriga moslashishi hodisasi. Masalan, “tuproq” soʻzining “turpoq” shaklidagi talaffuzi “t” va “r” tovushlarining bir-biriga moslashishi natijasida hosil boʻlgan.

6. Dissimilyatsiya (farqlanish) bu bir xil tovushlarning bir-biriga yaqinlashishi natijasida ularning farqlanishi. Masalan, “birorta” soʻzidagi “r” va “t” tovushlarining bir-biriga yaqinlashishi natijasida farqlanish sodir boʻlib, “bironta” shakli hosil boʻlgan.

Ushbu fonetik hodisalar oʻzbek tilida nutqiy tejamkorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Ular ogʻzaki muloqotda ifodaning soddalashishi, tezligi va samaradorligini oshiradi.

Oʻzbek tilining *morfologik sathida* gapning minimal qolipi va qoʻshimchalar tushirilishida nutqiy tejamkorlik oʻz aksini topadi. Qaratqich kelishigining (masalan, *Oʻzbekiston poytaxti Toshkent*) tushirilishi, tushum kelishigining qisqarishi (*Men kitob oʻqidim*), koʻplik qoʻshimchasining tushirilishi (*Talabalar darsga keldi*) yoki affiksali tejamkorlik (morfologik soddalashuv: “kelmoqda” → “kelyapti”; “oʻqimoqda” → “oʻqiyapti”) orqali gapning maʼnosi saqlanib qoladi, lekin nutq ixcham va tezkor ifodalanadi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, nutqiy tejamkorlik tilning *sintaktik sathida* turli usullar orqali namoyon boʻladi, masalan, egani tushirib qoldirish orqali. Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarida kelgan “*Hozir kelaman, kutib tur*” gapida ega, yaʼni “men”, “sen” tushirilgan, lekin feʼllardagi shaxs-son kategoriyasi orqali ega maʼnosi aniq anglashiladi. Bu jarayonlar ogʻzaki nutq, ayniqsa, kundalik muloqotda oʻzining tabiiy xususiyatlarini namoyon etadi.

Tilning sintaktik sathida nutqiy tejamkorlik quyidagi koʻrinishlar, yaʼni ikki yoki undan ortiq gapni qoʻshish (elliptik gaplar: *Men mashina haydayman, u esa – velosiped*), turdosh boʻlaklarning qisqarishi (parallel tuzilmalarda takroriy qismlarni tushirish: *Men kitob oʻqidim, ukam esa – jurnal*), undalma va murojaat

shakllarining qisqartirilishi (*Aziz do'stlar, bugun yig'ildik!*), gap bo'laklarini tushirish (omonimlar va sinonimlar asosida qisqartirish: *Dars tugadi, lekin ish emas*), bog'lovchilarning tushirilishi (*U keldi, men ketdim*) orqali amalga oshadi.

O'zbek badiiy asarlarida nutqiy tejamkorlikka erishish maqsadida *stilistik vositalar* keng qo'llaniladi. Metaforalar, o'xshatishlar, simvolizm, ironiya va boshqa badiiy vositalar yordamida murakkab g'oyalar qisqa, ixcham va samarali tarzda ifodalanadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida nutqiy tejamkorlikdan nafaqat tilda fikrlarning ixcham ifodalanishi, balki muloqotdagi hissiyot, ichki dunyo va madaniy xususiyatlarni ham aks ettirish maqsadida foydalanilgan. A.Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanida, o'zbek xalqining turmush tarzini, madaniyatini va ichki dunyosini qisqa, lekin aniq tasviriy ifodalarda beradi. Yozuvchi ko'pincha stilistik vositalardan foydalanadi, masalan, tasvir va metaforalar orqali voqealarni yoki qahramonlarning holatini qisqa va ta'sirli qilib ifodalashda mahorat ko'rsatadi. Misol: "*Yosh o'g'ilning ko'zlarida g'am, dilida esa umidlar suzib yurardi, u — bir yulduz kabi porlashi kerak edi*"²⁶. Bu misolda yozuvchi yosh o'g'ilning ichki holatini qisqa va aniq qilib tasvirlash uchun o'xshatishdan foydalanadi (yulduz kabi porlash), bu esa uning kelajakka bo'lgan umidini jonli tarzda ifodalaydi.

Audiovizual diskurs va akademik nutq odatda mantiqiy, ixcham va informativ bo'lishi kerak. Shu sababli, nutqiy tejamkorlik bu turdagi diskurslarda muhim o'rin tutib, bir necha ko'rinishlarda amalga oshadi: 1) audiovizual vositalar verbal va vizual belgilar uyg'unligidan foydalanib, semantik yukni kamaytirish orqali nutqni ixchamlashtiradi; 2) lingvistik belgilar qisqarib, vizual yoki audio elementlar orqali ko'proq ma'lumot berish imkoni yaratiladi; 3) semiotik minimalizm tamoyillariga asoslanib, ortiqcha leksik birliklardan qochish va kontekstual belgilardan samarali foydalanish kuzatiladi.

Akademik diskursda nutqiy tejamkorlikka ma'lum bir maqsadni ko'zlab murojaat qilinadi: ilmiy matnlarda redundantlikdan qochish, aniq terminlar va mantiqiy izchillikni saqlash; informatsiya zichligi muhim bo'lgan akademik janrlarda (maqola, tezis va referat) ortiqcha ifodalardan voz kechish orqali aniqlikni saqlash; dissertatsiya avtoreferatida, butun bir bob materiallarini ixcham yoritish kabilar akademik nutqiy tejamkorlikning yorqin namunasidir.

Til sathlaridagi nutqiy tejamkorlik va audiovizual hamda akademik diskurs integratsiyasini quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

1. Fonetik/fonologik sath: tovushlarning tushirilishi, qisqartirishlar (Masalan, "*have to*" o'rnida "*hafta*").
2. Leksik sath: sinonim tanlash, metaforalarning tejamkor ishlatilishi (*Mehnatning tagi rohat*).
3. Sintaktik qatlam: qisqartirilgan gap tuzilmalari, ellipsisga uchragan gaplar (*keldik, LondonO ko'chalari, LondonO streets*).
4. Morfologik qatlam: affikslarning funksional roli, qisqartirilgan shakllarning qo'llanishi (*olib kel*→*opke*).

²⁶ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. –T.: Navro'z nashriyoti, 2019. – 400 b.

5. Stilistik qatlam: matn strukturasi va ekspressiv vositalarning iqtisodiy ishlatilishi (*oq oltin (paxta)*, *Navoiyni yaxshi ko‘raman (asarlarini, she‘rlarini va hokazo)*).

Ekranizatsiya jarayonida matnning qisqartirilgan va soddalashtirilgan shaklini yaratishda semiotik minimalizm, dialoglarni qisqartirish, vizual ifoda vositalaridan foydalanish kabi nutqiy tejamkorlik metodlari qo‘llaniladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasi tasvirida voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, olam lisoniy manzarasi tasvirining lingvokognitiv tadqiqi, unda nutqiy tejamkorlikning roli, ingliz va o‘zbek olam lisoniy manzarasida nutqiy tejamkorlik voqelanishining milliy-madaniy xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan.

Olam lisoniy manzarasi, til orqali odamlarning dunyoni qanday tasavvur qilishini va bu tasavvurlarni qanday ifodalashlarini yoritadi. Lingvokognitiv yondashuvda, nutqiy tejamkorlik olamni tasvirlashda minimal va samarali resurslar bilan ma‘lumotni ifodalashni ta‘minlaydi. Bu jarayon har bir jamiyatning lisoniy va madaniy xususiyatlariga mos ravishda amalga oshadi.

Olam lisoniy manzarasining shakllanishida turli stilistik vositalar muhim rol o‘ynaydi. Tilshunoslikda stilistik vositalar, jumladan, frazeologizmlar, metaforalar, metonimiyalar, epitelar va personifikatsiyalar orqali inson ongida shakllangan dunyo modeli namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, ular milliy madaniyat, tarixiy tajribalar va jamiyatning turmush tarzi bilan uzviy bog‘liqdir²⁷. Frazeologizmlar madaniy kontekstda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, dunyoqarashi va muloqot odobini aks ettiradi. Ingliz tilidagi “break the ice” iborasi, ya‘ni odamlar orasidagi noqulaylikni bartaraf qilish, suhbatni ochish, o‘zbek tilida “muammoni yumshatmoq” yoki “vaziyatni yumshatmoq” kabi iboralar bilan ifodalanadi. “*The ball is in your court*” iborasi esa o‘zbek tilida “*endi hammasi sening qo‘lingda*”, “*navbat sendan*”, “*keyingi qadam senga bog‘liq*”, yoki “*endi sen hal qilasan*” kabi jumlar bilan ifodalanadi. Bu ibora javobgarlik, tashabbus va navbatni kimdadir ekanligini bildiradi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi stilistik vositalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, har bir xalq o‘zining madaniy muhitidan kelib chiqib, dunyoqarashini lingvistik vositalar orqali ifodalaydi. Masalan, “*boshi osmonga yetmoq*” va “*on cloud nine*”, “*vaqt shifokor*” va “*time heals all wounds*” kabi iboralar bir xil semantik asosga ega bo‘lsa ham, ular turli madaniy an‘analar va lingvistik xususiyatlar asosida shakllangan. Bu esa lisoniy manzaraning universal va milliy jihatlarini ochib beradi. Metaforalar va frazeologizmlar inson tafakkurining strukturasi aks ettirib, dunyoni anglashda muhim vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Metonimiyalar va epitelar esa predmet va hodisalarga bog‘liqlik asosida yangicha idrok qilishga imkon beradi. Personifikatsiya orqali esa jonsiz narsalar jonlantirilib, ularning

²⁷ Kamolova, D., Ergashova, E. Stylistic Devices Are the Main Tools of Stylistics. International Conference Proceedings. 2021. – P. 143-146.

insoniy xususiyatlar bilan boyitilishi kuzatiladi. Bu esa tilning ta'sirchanligi va estetik jihatdan boyligini namoyon qiladi.

Ingliz tilida olam lisoniy manzarasi nutqiy tejamkorlikning ingliz madaniyatiga xos bo'lgan "efficiency" (samaradorlik) va "simplicity" (soddalik) tamoyillarini aks ettiradi. Ingliz tilida frazali fe'llar, qisqartmalar va elipsis kabi vositalar yordamida nutqni qisqartirish va samarali ifodalash amaliyoti keng qo'llaniladi. Ingliz tilining olam tasvirida, aniq va to'liq so'zlar o'rniga qisqacha iboralar va kontekstdan tushuniladigan so'zlar ishlatiladi, bu esa ingliz tilining tejamkor va samarali ishlashga moyilligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa nutqiy tejamkorlik o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarga ega. O'zbek tilida nutqni soddalashtirish va qisqartirish ko'pincha so'zlar yoki iboralarni chiqarib tashlash, ya'ni "supressiya" holatlari orqali amalga oshiriladi. O'zbek madaniyatining an'anaviy kommunikatsiya uslubi va to'g'ridan to'g'ri, samimiy muloqotga intilish jarayonida nutqiy tejamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida frazali fe'llar va qisqartmalar yordamida nutq samarali amalga oshiriladi, ammo bu frazalar ko'proq madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, ularning ma'nosi faqat o'zbek jamiyatining madaniy va tarixiy sharoitlarida to'liq tushuniladi.

Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishining tahlili taqqoslanilayotgan tillarda mavjud bo'lgan o'xshashliklar va farqlarni namoyon etdi. Har ikki tilda frazali fe'llar, qisqartmalar va elipsis orqali nutq samarali ifodalanadi, ammo ingliz tilida soddalik va samaradorlikka, o'zbek tilida esa kontekstga asoslangan qisqartirish va an'anaviylikka e'tibor qaratildi. Shunday qilib, nutqiy tejamkorlik olamning lisoniy manzarasini tasvirlash jarayonida har bir tilning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon ettirilishida o'z aksini topdi.

Mazkur bobning ikkinchi faslida ingliz tilida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishidagi milliy-madaniy xususiyatlar tahlilida frazeologizmlar, metaforalar, metonimiyalar, epitelar va personifikatsiya kabi stilistik vositalarning lisoniy manzara shakllanishidagi o'rni tahlil etiladi.

Metaforalar: Ingliz tilidagi "He is a shining star in the company" gapida "shining star" metaforasi shaxsning juda muvaffaqiyatli yoki mashhur ekanligini ifodalaydi. "*Shining star*" yordamida keng jumla o'rnida shaxs haqida qisqacha va samarali ma'lumot beriladi. O'zbek tilida "*U bizning yulduzimiz*" jumlasida shaxsning muvaffaqiyatlari juda yorqin tasvirlanib, boshqalar orasida ajralib turishi ifodalanadi.

Frazeologizmlar: Frazeologizmlar yordamida har ikki tilda xalqning madaniy tajribasi aks ettiriladi. Masalan, ingliz tilida "*hit the sack*" iborasi uxlashga yotishni bildirsa, o'zbek tilida "*uyquga ketmoq*" iborasi shu ma'noni ifodalaydi.

Epitetlar va personifikatsiyalar: Nutqiy tejamkorlik yordamida insoniy hissiyotlar va tabiiy hodisalarni ifodalash jarayonida epitelar va personifikatsiyalarning roli katta. Masalan, "*quyosh kuldi*," "*shamol uvulladi*", "*silver moon*", "*olovli nutq*" kabi misollardan foydalanish lisoniy ifodani boyitadi va milliy estetik qarashlarni aks ettiradi. "*Silver moon*"da oy nuri, go'zalligi

tinchlik hissini uyg'otsa, "*olovli nutq*"da ta'sirli, kuchli va yurakka o'tdek ta'sir qiladigan nutq inobatga olinadi.

Nutqiy tejamkorlikning pragmatik jihati ham keng tahlil etiladi. Gap tuzilmasida qisqartirish (ellipsis) orqali ortiqcha so'zlar tushirib qoldiriladi, lekin gapning asosiy ma'nosi saqlanib qoladi. Ingliz tilida bu "*Want some coffee?*" kabi ifodalarda ko'rinadi. Shu bilan birga, tejamkorlik deiksis (*Come here*), qisartirish (*BRB- be right back*), kinoya (*Oh wow! Another fantastic weather!*), mubolag'a (*I've told you a thousand times!*) stilistik vositalar va hatto, ekstrolingvistik vositalar (*silent stare-* ma'nosi kontekstda anglashiladi) orqali ham namoyon bo'ladi. Raqamli muloqotda nutqiy tejamkorlik sms yoki chatlarda (*Are you coming? → U coming?*), ijtimoiy tarmoq postlarida (*Amazing day! → Lit day!*) va biznes yozishmalarida (*Docs ready!*) ko'p uchraydi. Bu usul muloqotning samaradorligini oshirib, vaqtni tejashga yordam beradi.

Mazkur bobning uchinchi faslida o'zbek tilida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishidagi milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi. Bunda har bir til o'zining madaniy kontekstiga mos ravishda nutqiy tejamkorlik strategiyalarini ishlab chiqishi haqida batafsil fikr yuritiladi. Ingliz tilida ixchamlik, faol nisbat va qisqartmalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida qo'shimchalarni tushirish, gap tuzilishining soddalashtirilishi va madaniy an'analar orqali aks etishi ko'rsatiladi va quyidagi yondashuvlar asosida misollar tahlil etiladi:

Kognitiv jihat. Inson ongining axborotni tez va samarali qayta ishlashi tilning ixcham ifodalanishiga olib keladi. Masalan, "*vaqt-boylik*" metaforasi inson tafakkurining iqtisodiy xarakterini ifodalaydi. Inson tafakkurida vaqt moliyaviy boylikdek qadrlanadi, chunki kognitiv tafakkurda vaqt faqat o'tuvchi hodisa emas, hayot va boylik sifatida ham qadrlanadi.

Madaniy jihat. Har bir xalqning o'ziga xos madaniy qadriyatlari nutqiy tejamkorlikning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalqining tabiatga bo'lgan hurmati, do'stlik va hamjihatlik, vaqtni qadrlash, ijtimoiy tenglik va odil muomala kabi qadriyatlari til ifodasida aks etadi. Maqollar va frazeologizmlar orqali bu qadriyatlar necha asrlik tajriba sifatida avlodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda.

Mazkur faslda turli misollar orqali nutqiy tejamkorlikning milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "*Do'sting bo'lsa, dastyor*" yoki "*Qo'shning tinch bo'lsa, sen tinch*" kabi iboralar do'stlik va hamjihatlik qadriyatlarini aks ettiradi. "Harakatda baraka" maqolida doimo harakatda bo'lgan inson turg'unlikdan qutuladi, harakat va baraka so'zlari orqali ijobiy natija va o'sish timsoli inobatga olinadi.

Badiiy asarlarda: Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarlaridan tanlanib olingan misollarda xalqning tarixiy tajribalari va madaniy qadriyatlari nutqiy tejamkorlik tamoyillari yordamida samarali aks ettiriladi. Bu asarlarda stilistik vositalar yordamida nutqiy tejamkorlik nafaqat axborot yetkazish, balki hissiy va madaniy kontekstda ifodalanadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida "*Odamlar*

ham daraxt misoli, suv topib, ildizini chuqurroq qo'ysa, mustahkam turadi"²⁸ – bu fikr insonning o'z ildizlarini unutmasligi lozimligini anglatadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida "*Tog' toshsiz bo'lmas, inson g'amsiz bo'lmas*"²⁹ – inson hayotidagi muammolar tabiiy ekanini anglatadi.

Ushbu bobda tilning turli qatlamlarida nutqiy tejamkorlikning qanday namoyon bo'lishi, uning kognitiv, pragmatik va madaniy jihatlari hamda stilistik vositalar orqali ifodalanishi haqida to'liq ma'lumot berilgan. Shuningdek, bobda nutqiy tejamkorlikning milliy-madaniy xususiyatlari, xalqning madaniy qadriyatlari bilan bog'liqligi va ijtimoiy hayotga ta'siri ham yoritiladi. Ingliz tilidagi ixcham ifoda usullari va o'zbek tilidagi madaniy an'analar, maqollar va frazeologizmlar o'rtasidagi farqlar, tilning umumiy iqtisodiyliги va kommunikativ samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalar sifatida ko'rsatiladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishida ekstralingvistik vositalar ahamiyati**" deb nomlanib, ekstralingvistik vositalar, ushbu vositalarning nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishidagi roli, qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tejamkorlikning olam lisoniy manzarasida voqelanishida ekstralingvistik vositalar tahlili, va raqamli texnologiyalar rivoji davrida ramziy ekstralingvistik kontekstual modellarning nutqiy tejamkorlikdagi kommunikativ funksiyalari kabi masalalarni yoritadi.

Dunyo tilshunosligida Aristotel, Edverd T. Hall, D.Kristal, J.Yul va D.Tennen kabi olimlar nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik vositalarga oid tadqiqotlar olib borishgan.

Aristotel "Ritorika" asarida muloqotning samaradorligi, nutqiy tejamkorlik va muloqot mazmunining to'g'ridanto'g'ri yetkazilishida imo-ishora va tana harakatlarning o'rnini ta'kidlagan.

1. *Imo-ishora orqali muloqotni boyitish.* Aristotel imo-ishoraga muloqotni kuchaytirish va aniqroq ifodalashning samarali usullaridan biri sifatida qaragan. Odamlar ko'pincha faqat so'zlar bilan cheklanmaydi, balki qo'llar, yuz ifodalari va boshqa tana harakatlari orqali o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini yanada ravshan tarzda ifodalaydi. Masalan, biror ma'ruzachi nutqida "Yoshlarni ilgarigi zamon an'analari bilan bog'lash zarur" degan bo'lsa, uning qo'l harakatlari va yuz ifodalari (qo'llarini ochib, ulkan bog'lanishlarni tasvirlab ko'rsatishi) bu fikrni yanada kuchaytiradi va eshituvchiga mazmunni yanada aniqroq yetkazadi.

2. *Tana harakatlari orqali muloqotni boyitish.* Aristotel, muloqotning nafaqat so'zlar orqali, balki tana harakatlari orqali ham ma'no ta'sirini oshirish mumkinligini ta'kidlagan. Masalan, xalqaro konferensiyada ma'ruza o'qishda yoki siyosiy nutq so'zlashda ma'ruzachi ma'lum bir mavzuni taqdim etayotgan paytida, o'zining tana holati va yurishi orqali mavzuga jiddiylik va urg'u beradi. Bu orqali auditoriya unga diqqat bilan e'tibor qaratadi.

Ferdinand de Sossyur ekstralingvistik vositalar (imo-ishora, kontekst) nutq jarayonida qanday ishlatilishi va til tizimining tejamkorlik xususiyatlarini

²⁸ O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. –T.:Yangi asr avlodi nashriyoti. 2019 y. – 336 b.

²⁹ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. –T.: Navro'z nashriyoti, 2019. – 400 b.

o'rganadi³⁰. Biror kishi biror narsani ko'rsatib, qo'lini silkitib "Mana bu!" deganida, imo-ishora yordamida u o'zining nima haqida gapirayotganini aniq qilib ko'rsatadi. Ikkinchi unsur konteks roli bo'lib, u quyidagicha izohlanadi. Biror shaxs boshqa kishiga nisbatan salbiy fikr bildirishni istaydi, lekin uning vaziyatini hisobga olib, yumshoq va ehtiyotkorona gapiradi. Masalan, "Bu ishni qilish qiyin bo'lsa-da, bizga muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi" gapida kontekst, ya'ni vaziyatni hisobga olish, nutqning maqsadga muvofiqligini oshiradi.

R.Yakobson o'z asarida imo-ishora va kontekstual ramzlarning til tizimini tejamkor qilishdagi roli va ularning milliy madaniyatni aks ettirishdagi o'rnini juda muhim deb hisoblaydi³¹. Quyida R.Yakobsonning bu fikriga asoslangan ba'zi misollarni keltirish mumkin:

Qo'l harakatlari (imo-ishora) – bir kishi gaplashayotganda qo'lini yuqoriga ko'tarib "Mana, u yerda!" deb aytsa, imo-ishora ko'p so'z ishlatishning oldini oladi. Qo'l harakati ham ma'lum bir ma'noni ifodalaydi, bu esa nutqning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Imo-ishora bunda so'zlar bilan to'ldiriladigan mazmunni yanada aniqroq va to'g'ri tushunishga imkon beradi. Bu usul nutqiy tejamkorlikka xizmat qiladi, chunki imo-ishora so'zlarni uzaytirishga hojat qoldirmaydi.

Kontekstual ramzlar – tilning ma'lum bir holat yoki madaniyatga moslashtirilgan ramzlari, ularning ma'nosi o'sha kontekstga qarab o'zgaradi. R.Yakobson bunday ramzlar nutqni qisqartirishi va samarali ifodalashga yordam berishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilida "*Assalomu alaykum*" va "*Xush kelibsiz*" kabi nutqiy odat undovlari o'zbeklarning mehmondo'stligini va samimiyatini aks ettiradi. Bu salomlashuv ramzlari qisqa va aniq tarzda muloqotni yanada samarali qiladi. Bunday iboralar faqat so'zdan iborat emas, ular o'z ichida milliy madaniyatni, urf-odatlarini va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi.

Edverd T.Hol ekstralingvistik vositalar, ya'ni tana harakatlari, imo-ishora va sukunat kabi usullar orqali milliy madaniyatning aks ettirilishini o'rgangan bo'lsa³², D.Kristel internetdagi yozishmalarda emoji va GIFlar kabi ekstralingvistik vositalarning nutq tejamkorligi va global madaniyatni aks ettirishdagi o'rnini tahlil qiladi³³. G.Yul nutq tejamkorligi va ekstralingvistik vositalarning kommunikativ va pragmatik funksiyalarini tahlil etib, ularni milliy madaniyatni aks ettirish vositasi sifatida talqin etadi³⁴.

Samuel Beket pyesasida³⁵ dialoglar minimalizmga asoslangan bo'lib, nutqiy tejamkorlikka erishiladi. Pyesada qahramonlar Vladimir va Estragonning sukunatlari va tana harakatlari orqali ularning ichki holatlari ifodalanadi. Masalan, ular Godotni kutish jarayonida ko'pincha sukunatda qoladilar yoki oddiy harakatlar

³⁰ Sossyur F.de . Course in General Linguistics. Paris, 1916. – 264 p.

³¹ Jakobson Roman. Language and literature. Linguistics and poetics. Chapter 7. London, 1987. Pages 62-93. https://monoskop.org/images/d/de/Jakobson_Roman_1960_1987_Linguistics_and_Poetics.pdf

³² Edward T.Hall. Silent language. U.S.A. 1959. – 242 p. https://monoskop.org/images/5/57/Hall_Edward_T_The_Silent_Language.pdf

³³ David Crystal. Language and internet. Cambridge press, Cambridge. 2004. –171 p.

³⁴ Yule G. Pragmatics. Oxford University Press. 1996. –128 p. <https://www.google.co.uz/books/edition/Pragmatics/E2SA8ao0yMAC?hl=en&gbpv=1&pg=PA3&printsec=frontcover>

³⁵ Samuel Beckett .Waiting for Godot. Les Éditions de Minuit. Paris,1952. –132 p.

bilan vaqt o'tkazadilar. Bu ekstralingvistik vositalar orqali muallif qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalaydi va nutq tejamkorligini ta'minlaydi.

D.Tennen turli madaniyatlardagi nutqiy tejamkorlik va undagi ekstralingvistik omillarni tahlil qilib, *imo-ishora*, *ramzlar* va *takror* kabi stilistik vositalarning nutq tejamkorligidagi o'rnini ko'rsatadi ³⁶. D.Tennenning asarida takrorlashning ahamiyati tahlil qilinadi. Masalan, "*Ha, ha, men tushundim!*" yoki "*Ammo, lekin bu...*" kabi ifodalar muloqotni qisqartiradi va o'sha vaqtda anglashilgan tushunchani mustahkamlaydi.

Ingliz romanlarida nutqiy tejamkorlikni ta'minlash maqsadida ekstralingvistik vositalardan biri bo'lgan *ong oqimi usulidan* (stream of consciousness) keng foydalaniladi. *Ong oqimi usuli* – bu ichki monolog yoki tafakkur yordamida xarakterlarning fikrlash jarayonini, ong oqimini aks ettirishga qaratilgan badiiy uslubdir. Ushbu uslub o'quvchiga qahramonning ongiga bevosita kirish imkonini beradi va uning dunyoqarashi, his-tuyg'ulari va qarorlarini ichki dunyosida tahlil qilishga yordam beradi.

Ong oqimi usulining asosiy turlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: a) ichki monolog – xarakterlar o'z fikrlarini ichki nutq orqali ifodalaydi, bu esa ularning ongidagi murakkab jarayonlarni tasvirlash imkonini beradi; b) erkin tuzilma – matn mantiqiy ketma-ketlikka yoki sintaktik qoidalarga bo'ysunmaydi, balki fikrlar va xotiralar tabiiy oqimda beriladi; c) vaqt va makonning buzilishi – ushbu usulda qahramon hozirgi paytdan o'tgan voqealarga yoki kelajak haqidagi xayollarga o'tib ketadi.

J.Joys qahramonlarning ong oqimini murakkab va erkin tilda aks ettiradi³⁷. Masalan, Stefen Dedalus va Leopold Blumning ichki monologlari orqali o'quvchi ularning ichki his-tuyg'ulari, kundalik fikrlari va qarama-qarshiliklarini tushunadi. V.Vulf qahramonlarning ichki hayoti va tafakkurini ong oqimi usulida ifodalaydi³⁸. Bunda Ramsey xonimning kundalik hayoti va oilaviy munosabatlar haqidagi mulohazalari orqali muallif uning ichki dunyosini ochib beradi.

Demak, oqim usulida ekstralingvistik qatoriga kiradigan tasviriy detallar (atmosfera, rang, harakatlar), imo-ishora va tana harakatlari (harakatlarning ramziy ifodasi), tovushlar va pauzalar (sukunat, nutqdagi uzilishlar) qahramonlarning hissiy holatini ifodalashda katta rol o'ynaydi.

Hozirgi globallashtirish va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda inglizlarning har kungi hayotida ekstralingvistik vositalar nutqiy tejamkorlikni ta'minlash va milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Bu restoranlarda mijozlar bilan muloqotda menyuning grafikli ko'rinishi, belgilar (vegan taomlar uchun maxsus belgilar, chili belgisi) va qisqa yozuvlar qo'llanilishi; do'konlar va bozorlarda chegirmalarni ifodalovchi "%" belgisi va rangli reklamalar xaridorlarni jalb qilish uchun ishlatilishi; aeroportlar va temir

³⁶ Deborah Tannen. Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends. – 238 p. https://www.google.co.uz/books/edition/Conversational_Style/8JIRDAAAQBAJ?hl=en&gbpv=1&pg=PA3&printsec=frontcover

³⁷ Joyce J. Ulysses. Sylvia Beach, Paris, 1922. – 939 p.

³⁸ Woolf V. To the Lighthouse. Hogarth Press, London, 1927. – 320 p.

yo‘l stansiyalari ma’lumotlar ekranida yo‘nalish, vaqt va boshqa ma’lumotlar ranglar va piktogrammalar yordamida berilishi (masalan, chiqish eshiklari uchun yashil rang yoki yo‘nalish belgilaridagi o‘q belgisi); tadbirlarni boshqarishda rangli kartochkalar (masalan, “*Kirish uchun ruxsat*” yoki “*Faqat xodimlar uchun*” deb yozilgan belgilar) va qisqa video yo‘riqnomalar ishlatilishi kabilarda namoyon bo‘lib, ingliz madaniyatida ekstralingvistik vositalar (ranglar, belgilar, grafikalar va ovoz signallari) nutqiy tejamkorlikni ta’minlashning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida ekstralingvistik vositalar orqali nutqiy tejamkorlik masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fundamental tarzda o‘rganila boshlandi. Ekstralingvistik vositalarning nazariy ahamiyati N.Shayxislamovning “Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari haqida mulohazalar” maqolasida batafsil bayon qilingan bo‘lib, ekstralingvistik vositalarning muloqotga samarali ta’siri xususida fikr yuritilgan.

Qo‘l harakatlari (imo-ishoralar) muloqot jarayonida fikrni kuchaytirish yoki qo‘shimcha ma’no berishda qo‘llaniladi. Masalan, suhbatdoshning yelkasiga qo‘l qo‘yish yaqinlikni, qo‘l bilan ishora qilish esa e’tiborni jalb qilishni anglatishi mumkin. “O‘zbekona madaniyatda noverbal aloqa vositalari”³⁹ deb nomlangan maqolada o‘zbekona muloqot odatlarida murojaatning bir qancha noverbal shakllari, jumladan, qo‘l harakatlari haqida ma’lumot berilgan.

O‘zbek romanlarida mualliflar nutqiy tejamkorlikni ta’minlash va muloqotni yanada samarali qilish maqsadida ekstralingvistik va noverbal vositalardan foydalanib, o‘ziga xos uslub yaratdilar. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalashda noverbal vositalardan unumli foydalanadi. Masalan, Otabekning Kumush bilan uchrashuvlarida *ko‘z qarashlari, yuz ifodalari orqali* ularning o‘zaro munosabatlari va his-tuyg‘ulari tasvirlanadi. Qahramonlarning imo-ishoralari, masalan, *bosh egish, yelka qisish* kabi harakatlari orqali ularning ruhiy holatlari va munosabatlari ifodalanadi. Bu noverbal vositalar muallifga dialoglarni qisqartirish va muloqotni samarali yetkazish imkonini beradi. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asarida qahramonlarning his-tuyg‘ularini ifodalashda *tabassum, ko‘z yoshi, qosh chimirish* kabi noverbal vositalardan foydalaniladi. Bu usul orqali muallif muloqotni yanada jonli va ta’sirchan qilishga erishadi. Romanda qahramonlarning *qo‘l harakatlari*, masalan, *qo‘l siltash, qo‘l ni ko‘ksiga qo‘yish* kabi noverbal vositalardan foydalanib, qahramonlarning o‘zaro munosabatlari va ichki kechinmalarini matnga emotsionallik va rang-baranglik ato etish orqali ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi nutqiy tejamkorlikning ekstralingvistik jihatlari quyidagicha tahlil qilindi:

1. An’anaviy madaniy elementlar. O‘zbek tilida nutqiy tejamkorlik nafaqat so‘zlarning qisqartirilishi, balki xalq an’analari va urf-odatlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Masalan, “Assalomu alaykum”, “Xush kelibsiz” kabi salomlashish

³⁹ Boltayeva N. To‘xtayev H. O‘zbekona madaniyatda noverbal aloqa vositalari. Maqola, Talqin va Tadqiqotlar. Jild 1 N20. 2023. <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1337>.

iborolari, madaniy normativlar va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu iboralar qisqa, lekin madaniy kontekstni boyitadi.

2. Noverbal muloqot vositalari. O'zbek madaniyatida *qo'l harakatlari, yuz ifodalari, quchoqlashish va peshonadan o'pish* kabi ekstralingvistik vositalar keng qo'llaniladi. Ular muloqotda hissiy aloqani mustahkamlab, tilning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tarixiy jihatdan, O'zbekistonda til va madaniyat o'rtasidagi uyg'unlik an'anaviy uslubda aks etadi, bu esa zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida ham saqlanib qolgan.

3. Raqamli texnologiyalar va ekstralingvistik vositalar. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, SMS va chat platformalarida ekstralingvistik vositalar (emojilar, GIFlar, qisqa vizual belgilar) orqali muloqot samaradorligi yanada oshirilmoqda. Bu vositalar o'zbek tilida ham qo'llanilib, milliy madaniy xususiyatlarni saqlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan *yangi ramziy kontekstual modellarning* shakllanishi muloqotda muhim o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli texnologiyalar va internetning kuchayishi natijasida paydo bo'lgan *ramziy kontekstual modellar*, ayniqsa onlayn muloqotda nutqiy tejamkorlikni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bunday modellar, asosan, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloglar va boshqa onlayn platformalarda nutqning tejamkorligi va samaradorligi uchun yangi imkoniyatlar yaratildi.

Smayl (smiley), emoji (emoji), va emotikonlar (emoticons) nutqiy tejamkorlikning kommunikatsiya jarayonida ma'lumotni qisqa, lekin mazmunli yetkazish prinsipini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Emojilar *hissiy boylikni, madaniyatlararo kommunikatsiyani ta'minlash, pragmatik aniqlikni oshirish* kabi kommunikativ vazifalarni bajaradilar.

Hissiy boylikni ta'minlash. Til lisoniy birliklar, badiiy tasvirlar va stilistik vositalar yordamida hissiy holatlarni ifodalay oladi, emojilar esa hissiyotlarni ifodalashda vizual rang-baranglik qo'shadi. Masalan, 😊 emoji qayg'uni vizual ifodalaydi va yozma nutqda hissiy tuyg'ularni oshiradi. Bu hodisa nutq aktlari nazariyasi va konnotativ semantika bilan bog'liq. Smayl va emojilar illokutsiya kuchini oshiradi (xabarni qabul qiluvchiga ham vizual ham hissiy ta'sir ko'rsatadi).

Pragmatik aniqlikni oshirish. Emojilar xabar ma'nosini kontekstdan kelib chiqib aniqroq talqin qilishga yordam beradi. Ko'pincha yozma matnlar "quruq" bo'lishi mumkin va bu hodisa emoji yordamida yumshatiladi. Masalan, "*Men seni kutyapman 😊*" gapidagi emoji xabarning samimiy va chuqur hissiy ruhda uzatilayotganini namoyon etadi. Bunday hollarda pragmatikaning *kooperatsiya tamoyillari* asos bo'la oladi, ya'ni mazkur emoji yordamida xabarni noaniqliklardan xoli qilamiz.

Madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi. Emojilar lisoniy birliklardan mustaqil ravishda universal belgilar sifatida qabul qilinadi. Bu vositalar turli madaniyat vakillari o'rtasida tushunishni osonlashtiradi, Masalan, 😊 yoki 😊 kabi belgilarning hissiy talqini insonlarning turli madaniyat sohibi bo'lishlariga

qaramasdan bir xil his-tuyg'ularni uyg'otadi. Madaniyatlararo pragmatika (intercultural pragmatics) sohasi bu fenomenni o'rganishda muhim yo'nalishdir.

Ramziy ekstralingvistik kontekstual modellarning nutqiy tejamkorlikdagi kommunikativ funksiyalarini ifodalovchi misollarni tahlil etamiz:

Oddiy xabar: *Men bugun juda charchadim.*

